



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

MUSIQA DARSLARINI XALQIMIZ O'TMISH TARIXI
NAMUNALARI BILAN O'ZARO ALOQADORLIKDA TASHKIL
ETISH YO'LLARI VA MEXANIZMLARI

Karimov Saxob Baxromovich

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Musiqqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

E-mail address: karimovsaxob1@gmail.com.

Tel: +998990834259 +998888356007

Asrlar bo'yi ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan musiqiy madaniyatimizni asrash, an'anaviy qo'shiqchilik va milliy musiqqa boyligimizdan foydalangan holda bugungi zamon ruhiga mos musiqalar yaratish, jaxon klassik musiqqa san'atidan unumli foidalanish, milliy estrada ruhida qo'shiqlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. "Uzoq tariximizdan ma'lumki har qanday zo'ravon bosqinchilar va yurtimizda hukmronlik qilmoqchi bo'lgan kuchlar yovuz niyatlariga erishish uchun, avvalo, milliy madaniyat va an'analarimizni yo'q qilish uchun, shu yo'l bilan bizni ma'naviy jihatdan zaiflashtirishga, kuch qudratimizni yo'qotishga harakat qilganlar. Bu haqiqatni hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz kerak"⁴².


Ma'naviy merosga bu kabi urg'u berilishi bejiz emas. Navbatdagi vazifa ajdodlarimiz merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish, folklor musiqiy uslublarini hozirgi davr amaliyotiga tadbiiq etish, eng muhimi, hozirgi jamiyatimizda musiqiy merosimiz tutgan o'rnini aniq-ravshan belgilab berishdan iborat.

Musiqiy meros va uning tarixini o'rganishda maqom san'ati ham alohida o'rin tutadi. Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy merosini o'rganish borasida musiqashunos-manbashunos olimlar I.Rajabov, F.Karomatli, O.Matyobov, A.Nazarov, R.Abdullaev, J.Rasultoyev, O.Ibrohimov, S.Saidiy, R.Yunusovlarning ajdodlarimiz musiqqa merosini o'rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. San'atshunoslik yo'nalishlarining nazariy va amaliy asoslari, milliy va mahalliy uslublari masalalari, musiqqa ilmi nazariyotchilarining asarlari, musiqiy qarashlari, islomgacha bo'lgan an'analar va folklor uslublari, musiqiy sozlar, maqomdon ustozlar tazkiralari murojaat qilinib, ularning hayoti va ijodi hamda ijro uslublari va ijro maktablarining negiziy asoslari ko'rsatib berilgan.⁴³

Musiqqa daslarini o'qitishda tarix fani yoki tarixiy dalillarga murojaat qilish, o'rganilayotgan yoki tinglanayotgan asarlarni yaratilish tarixi, davri, mualliflari tog'risida ma'lumotlar berilad. Hattoki, musiqqa savodi faoliyatida ham musiqqa ilmi, uning nazariyasi bilan shug'ullangan olimu - allomalar, yaratgan ilmiy risolalalari asosida

⁴² I.A.Karimov «Barkamol avlod orzusi» 32-bet

⁴³ Yunusov R. Maqom san'ati ustalari. Faxriddin Sodiqov. T., 2005.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

vujudga kelgan hozirgi nota yozuvi to'g'risida ma'lumotlar berish o'rinli bo'ladi. O'zbek mumtoz musiqusi, shashmaqom, o'zbek musiqa madaniyati rivojiga kata hissa qo'shgan musiqashunos olimlar, allomalar, bastakor kompozitorlar hayoti va ijodi haqida zarur bilm va tushunchalarni berishda tarixiy ma'lumotlarga murojat qilish, fikrlarni dalillovchi vosita sifatida foydalanish pedagogikaning didaktik prinsiplariga mos keladi.

Ijtimoiy gumanitar fanlar ichida tarix fani alohida o'rin tutadi. Bu fan yer yuzida hayot nishonalari paydo bo'lgan davrdan boshlab, to hozirgi kunlarda kechayotgan voqea va hodisalar sabablarini, voqealar kechishi jarayonini, ulardan kelib chiqqan oqibatlarni ilmiy asosda, isbot dalillarga tayangan holda o'rganuvchi fandir.

Biz bilamizki, barcha san'at turlarida bo'lgani kabi musiqa san'ati ham hayotni, insonlar hayoti bilan bog'liq voqea, hodisa, jarayonlarni musiqiy – badiy obrazlarda ifoda etadi. Musiqa san'atida u yaratilgan davr ruhi o'z aksini topadi. Shu ma'noda musiqa fanining tarix fani bilan aloqadorlikda bog'lanishini qo'ydagicha izohlashimiz mumkin :

Barcha xalqlar musiqa madaniyatini o'z rivojlanish tarixi, qonuniyatlari mavjud. Musiqa madaniyatining rivojlanish tarixi esa shu xalq tarixi bilan chambarchas bog'liqdir .

Musiqa darslarida xalq musiqa ijodiyotiga tegishli tarixiy, ijtimoiy, mavzulardagi shuningdek mumtoz va maqom namunalarini o'rganish, ular yaratilgan davr, mashhur ijrochilari, mualliflari, qanday sharoit va vaziyatda aytilishi kabi dalillarga murojat qilinganda albatta tarix faniga oid bilimlarga suyanish kerak bo'ladi. Musiqa darslarini o'tishda bevosita musiqa tarixiga oid ma'lumotlarni ham qisqa tarzda bo'lsa ham berib borish har jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Jahon musiqa ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar Abu Nasr Forobiy, Ibn-Sino, Ibn Zayla, SayfuddinUrmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Darvish Ali Changiy, Abdurahmon Jomiy, A.Navoiy, Komil Xorazmiylarning musiqa ilmi rivojiga qo'shgan hissalar, yaratgan asarlari, halqimiz musiqa madaniyatining gultoji bo'lmish maqomlar, cholg'u sozlari va ularning yevropaga yoyilishi tarixi tog'risidagi ma'lumotlar o'quvchi – yoshlari musiqa san'atimizning naqadar boy o'lmas hazina ekanligi haqida, uni sevisht, qadrlash, o'rganish, rivojlantirish va vorislik qilish tuyg'ularini tarbiyalashda benazr ahamiyat kasb etadi albatta.

Boshlang'ich siflarda darslarni bolalarning xarakteri, dunyoqarashi, psixologiyasi (diqqati, xotirasi, jismonan ham yaxshi rivojlanganligi) fizologik hususiyatlaridan kelib chiqib qiziqarli, o'yin – raqs harakatlarini bajarish orqali tashkil yetishga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu jarayonda jismoniy madaniyat fani talablariga mos ritmikharakatlartanlash, raqs elementlaridan mohirona foydalanish ham fanlararo aloqadorlik mazmun va mohiyatiga mos keladi.

Musiqa darslarini bevosita musiqa san'atiga tegishli fanlar bilan bog'liqlik hususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, hech mubolog'asiz aytish mumkinki, musiqiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan oliy o'quv yurtlari o'quv rejasining





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ixtisoslashgan fanlari" sirasiga kiruvchi barcha fanlar o'z o'rnida musiqa darsining u yoki bu komponentida ishtirok etadi, ularning ishtirokisiz musiqa darslarini o'tish aslo mumkin emas. Qo'shiq kuylash faoliyatida vokal-xor ishlari asosiy o'ringa chiqsa, jamoaviy ijroni boshqarishda dirijyorlik fani yordamga keladi. Musiqa savodi faoliyatida garmoniya, musiqa asarlari tahlili, solfedjio fanlariga oid bilimlar asosida ish ko'riladi. Musiqa tinglash faoliyati esa bevosita musiqa asarlari tahlili, musiqa tarixi, sana'ashunoslik, folklorshunoslikka oid manbalar, materiallar va ma'lumotlarga asoslanib ish tutishni taqozo etadi. O'qituvchi tomonidan musiqa asarini chalib berilishi, bolalar ijrosiga cholg'u asbobida jo'r bo'lish darsni muvoffaqiyatini ta'minlovchi bosh omillardan hisoblanadi.

Ko'rinadiki, musiqa fani o'z ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini juda keng doiradagi fanlar aloqadorligisiz amalga oshirishni tasavvur etish va bu haqda fikr yuritish ham aslo mumkin emas.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod orzusi» 32-bet taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston»,1997 .137-bet
2. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993.
- 3.Yunusov R. Maqom san'ati ustalari. Faxriddin Sodiqov. T., 2005.
- 4.S.Saidiy. O'zbek Musiqasi tarixi. Darslik.1-11 qismlar./ "Musiqa nashriyoti.". Toshkent-2020.yil.
5. Ibragimov O. "O'zbek musiqa ijodi". 1990 y.
- 6.Abdullayev R.S., Solomonova T.Ye. O'zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya. T., 1983.
- 7.A.Jabborov,S.Begmatova, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent 2018-yil
- 8.T E Solomonova.O'zbek musiqasi tarixi.Toshkent.O'qituvchi 1981-yil
- 9.Karimov Sakhob Bakhromovich. "PROBLEMS OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION AND TASKS TO BE SOLVED". Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022. <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2022/iss2/12>.
- 10.S.B.Karimov. "Specific methods of interdisciplinary organization of music lessons". Alma mater.- Samarkand. 2014, 2nd book.-pp.51-52.

